



**SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI HUZURIDAGI
SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT
SALOMATLIGI QO'MITASI ANDIJON VILOYAT BOSHQARMASI BOSHIG'INING
B U Y R U G' I**

«17» sentabr 2025 yil

№ 86

Andijon shaxar

**“O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining
korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me‘yoriy hujjatlarini
takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2025-yil 22-iyuldagi 46-sonli buyrug‘i ijrosini
ta‘minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlarini Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda – Sanepidboshqarmasi) sohasida tatbiq etish bo‘yicha ishlab chiqilgan sohaga oid ichki me‘yoriy hujjatlarini takomillashtirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Sanepidqo‘mning 2025-yil 22-iyuldagi 46-sonli buyrug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar;

Sanepidqo‘mning Andijon viloyat boshqarmasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati 1-ilovaga muvofiq;

Sanepidqo‘mning Andijon viloyat boshqarmasi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;

Sanepidqo‘mning Andijon viloyat boshqarmasida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

Sanepidqo‘mning Andijon viloyat boshqarmasi aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

Sanepidqo‘mning Andijon viloyat boshqarmasi xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

Sanepidqo‘mning Andijon viloyat boshqarmasida kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma 6-ilovaga muvofiq;

Sanepidqo‘mning Andijon viloyat boshqarmasiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma 7-ilovaga muvofiq;

Sanepidqo'mning Andijon viloyat boshqarmasida Korrupsiyaga qarshi tartib-
taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 8-ilovaga
muvofig;

Sanepidqo'mning Andijon viloyat boshqarmasida korrupsiyaga qarshi kurash
tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom
9-ilovaga muvofig;

Sanepidqo'mning Andijon viloyat boshqarmasining korrupsiyaviy
xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari
o'tkazish bo'yicha reglamenti 10-ilovaga muvofig;

Sanepidqo'mning Andijon viloyat boshqarmasida davlat xaridlari ustidan nazoratni
tashkil etish bo'yicha uslubiy qo'llanma 11-ilovaga muvofig;

Sanepidqo'mning Andijon viloyat boshqarmasi xodimlari tomonidan xizmat
safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan
sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom
12-ilovaga muvofig;

Sanepidqo'mning Andijon viloyat boshqarmasida Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik
haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda
ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom
13-ilovaga muvofig;

Sanepidqo'mning Andijon viloyat boshqarmasida monopoliyaga qarshi komplaens
tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to'g'risida nizom 14-ilovaga muvofig
tasdiqlansin.

**3. Andijon viloyat sanepidboshqarmasining tuman (*shahar*) bo'lim boshliqlari
10 kun muddatda:**

Ushbu buyruqqa asosan ichki me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

Buyruq va uning ilovalarini har bir xodim kesimida reyestr orqali tanishtirish
ishlarini tashkil etsin;

Boshqarmaning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga (M.Bulturboyev)
amalga oshirilgan ishlar yuzasidan asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda
taqdim etsin.

**3. Tuman (*shahar*) bo'lim boshliqlari tomonidan mazkur buyruqning ilovalari
bilan tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlar ijrosi bo'yicha nazoratni doimiy ravishda
ta'minlash choralarini ko'rib borsin.**

**4. Boshqarmaning бўлим mudirlari, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi
(M.Bulturboyev) bilan hamkorlikda ikki hafta muddatda aholining sohadan qoniqish
darajasini aniqlash imkonini beruvchi qisqa so'rovnoma shakllantirilib Ommaviy
axborot vositalari jamoatchilik bilan ishlash bo'limi (N.Axunova) va Axborot-
kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'limi (T.Karimov) taqdim etsin.**

O'z navbatida Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik bilan ishlash bo'limi
(N.Axunova) va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish bo'limiga
(T.Karimov) so'rovnomani Boshqarmaning rasmiy veb-sayti ochiq ma'lumotlar
bo'limiga joylashtirsin.

5. Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi (M.Bulturboyev) va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (G.G'ofurova) mazkur buyruq bilan barcha xodimlarni tanishtirib Boshqarmaning tuman (*shahar*) bo'limlariga ijroga o'z vaqtida yetkazilishini ta'minlasin.

6. Andijon viloyat boshqarmasining "Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni takomillashtirish to'g'risida"gi 2022-yil 20-sentyabrdagi 84/1-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur buyruq ijrosi yuzasidan nazoratni o'z zimnamda qoldiraman.

Boshqarma boshlig'i



A.Ikramov

Kiritildi:

Inson resurslarini rivojlantirish
va boshqarish bo'limi boshlig'i



G.G'ofurova


Kelishildi:

Boshliqning birinchi o'rinbosari




I.Sotvoldiyev

Boshliq o'rinbosari




B.Begimqulov

Epidemiologiya bo'limi mudiri




F.Imomov

Korrupsiyaga qarshi ichki
nazorat tuzilmasi



M.Bulturboyev

Ommaviy axborot vositalari
jamoatchilik bilan ishlash bo'limi




N.Axunova

Axborot-kommunikatsiya
texnologiyalarini rivojlantirish
bo'limi



T.Xakimov

Bosh Yuriskonsult



A.Kenjaev